



YOSHLAR TARBIYASIDA VATANPARVARLIK VA INSONPARVARLIK ENG ULUG‘ FAZILAT, HAMDA MUQADDAS BURCHIDIR

Xudoyqulov Xol Jumayevich

*Mirzo Ulug‘bek nomidangi O‘zMU “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrası
professori, pedagogika fanlari doktori. xol.xudayqulov.51@mail.ru. Tel: 90-128-47-10.*

Salimov Ma‘ruf Eshdovlat o‘g‘li

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
smarufel1995@gmail.com. Tel: 95-024-42-95.*

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi eng dolzarb masala bo‘lib, bunda vatanparvarlik va insonparvarlik eng muqaddas fazilat ekanligini shakllantirish haqida so‘z yuritir ekan, unda Sharqona vatanparvarlik va insonparvarlikning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, bugungi mustaqil yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarda bu fazilatlarni mujassamlashtirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, vatanparvarlik, yoshlar, insonparvarlik, Sharq odobida vatan tuyg‘usi, inson muqaddas, vatan kindik qoni to‘qilgan muqaddas dargohdir, Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir, bu shiorlar barchaning insonparvarlik burchi.

Annotatsiya: Сегодня воспитание молодежи является наиболее актуальным вопросом, говоря о формировании патриотизма и гуманизма как самых священных добродетелей, подчеркивает уникальные черты восточного патриотизма и гуманизма, показывает пути воплощения этих качеств в молодежи, которая будущее нашей независимой страны.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, молодёж, гуманизм, чувство Родины в восточной культуре, человек священн, Родина — священное место, где плетётся пуповинная кров, Родина так же дорога и свята, как мат, эти лозунги — гуманитарный долг каждого.

Annotation: Today, youth education is the most urgent issue, while talking about the formation of patriotism and humanitarianism as the most sacred virtues, it highlights the unique features of Eastern patriotism and humanitarianism, and shows ways to embody these qualities in the youth who are the future of our independent country.

Key words: Motherland, patriotism, youth, humanitarianism, feeling of motherland in Eastern culture, man is sacred, motherland is a sacred place where umbilical cord blood is woven, Motherland is as dear and holy as mother, these slogans are everyone's humanitarian duty.

“Vatani borning baxti bor, Mehnati borning taxti bor”. Maqol. Vatanparvarlik haqida so‘z yuritishdan avval Vatan tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Vatan aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini anglatadi, shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston



– o‘zbek xalqining vatani, muqaddas zaminidir. Shoir aytganidek, “Dunyo bo‘ldi chamanim manim, O‘zbekiston vatanim manim”- deyiladi.

Vatan bu inson va uning avlod – ajdodlari yashagan, kindik qoni to‘qilgan muqaddas dargohdir. Vatan bu ajdodlar maskani, el – yurt, xalqni voyaga yetkazgan joy, uning tili, tarixi, madaniyati, urf – odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, o‘ziga, kamol topib boradigan zamin. Vatan deganda, hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta‘lim – tarbiya olib voyaga yetgan, necha – necha avlod – ajdodlarimiz yashab kelgan, ularning aql – idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

“Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir. Uni sevmoq iymondandir. Vatan insonga baxtiqbol beradigan zamindir”. Hadislardan

Abdulla Avloniy aytganidek: "Har bir kishining chindan ham tug‘ilib o‘sgan shahar va davlatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarni, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turondek jannatiy yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi".

Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning katta – kichigi ham, boy – kambag‘ali ham bo‘lmaydi, uni hech narsaga almashtirilmaydi, u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi, in‘om ham etilmaydi, qarzgaga ham berilmaydi.

U har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Ha, “Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir”. Uning tuprog‘ini ko‘zlarga surtib, eng oliy ne‘mat singari boshimiz uzra baland ko‘tarib, har on va har soniyada unga ta‘zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Iymoni but, vijdoni pok har bir inson vatanni sevadi. uni g‘animlar ko‘zidan asraydi, uning yashnashi va yashashi, ozodligi va hurligi uchun kurashadi.

Vatan mehrini, vatan sehrini, uning mo‘tabarligiyu – ulug‘vorligini so‘z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el – yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi.

Ma‘lumki, sho‘rolar davrida milliy manfaat, vatanga, ona zaminga mehr – muhabbat degan his – tuyg‘ular asta – sekin so‘na boshlagan, “Vatan” tushunchasi mavhum bir umumiy holga kelib qolgan edi. Hamma narsa – “Umumsovet” (“Umum

sho‘ro”) manfaatiga qaratilgandi. Har bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o‘z vatani uchun qayg‘urishga haqli emasdek his etar edilar.

Oxir - oqibat shunga keldiki, sobiq sovet davrida bu davlatda yashayotgan xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar ham o‘z vataniga befarq bo‘lib yashashga majbur bo‘ldilar. Buni O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Voxidov “Vatan umidi” she‘rida shunday ifodalaydi:

Agarchi ismim Erkin Kiyintirdim jahonni Erki yo‘q kishan bo‘ldim. Jismim uryon, bekafan bo‘ldim. Ko‘zim bog‘liq, dilim bog‘liq, Chekubdur Boburu Furqat Tilim yo‘q, be suxan bo‘ldim. Vatan hajrida afsonalar Muazzam Sayhunu Jayhun Men ersam, ne g‘urbatkim Labida tashnalab qoldim, Vatanda bevatan bo‘ldim. Inson uchun na davlat, na saltanat, na toju – taxt, hech bir narsa Vatanga, el – yurt mehriga teng kelolmaydi. Ha, o‘z Vatanidan





judolik – inson uchun katta baxtsizlikdir. Inson istagan joyda bir parcha nonga qornini to‘yg‘azishi mumkin. Lekin Vatanning o‘rnini hech narsa bosaolmaydi. Vatanda yashash haqiqiy baxtdir.

Mustaqillik tufayli biz o‘zimizning haqiqiy vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne‘matidir. Vatani mustaqil xalqning o‘zi ham mustaqil bo‘ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki, o‘z qo‘lida bo‘ladi.

Tarix o‘zbek xalqining hozirgi Siz va Biz kabi avlodi zimmasiga g‘oyat buyuk vazifani yukladi. Bu Vatanimiz kuch – qudratini mustahkamlash, uning dovrug‘ini olam uzra yoyish, shuhratiga shuhrat qo‘shishdir. Har birimnz o‘zimizniig yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatimiz, halol mehnatimiz bilan o‘zimizdan keyingi avlodlarga ozod va obod vatanni qoldirshimiz nasl – nasablarimiz oldidagi burchimizdir.

Milliy mustaqillik – xalqimizda, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh, barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg‘ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Xo‘sh, hozirda vatanparvarlik o‘zining qanday qirralari bilan namoyon bo‘layotir?

Avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi o‘zbek vatanparvarligi ota – bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Demak, bugun saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O‘zbekiston ravnaqiga hozir har daqiqada ulush qo‘shmoq vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, uni yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran anglab, ardoqlash ham vatanparvarlikning bir qirrasidir. Vatanparvarlikni o‘tmish mutafakkirlari ham qayd etganlar va o‘zlari ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan eng oliy tuyg‘u sifatida ba‘zilarini eslab o‘tamiz.

– Bizga ota – onalar, bolalar, yaqin xesh – aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina “Vatan” degan so‘zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jonini berishga ikkilanar ekan!

– Ma‘rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanligida aks etadi.

– Kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. – Kimki o‘z Vataniga daxldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas. – O‘z vataniga dog‘ tushirish – uni sotish degan so‘z. Ha, Vatan tuyg‘usi bo‘lgan kishidagina vatanparvarlik hissi jo‘sh uradi. Vatanparvarlik deganda yana quyidagilarni anglash joiz: – o‘z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish; – qadimiy obidalar, mislsiz, ajdodlarimizning go‘zal va ma‘noli urf – odatlar, rasm – rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;

– ajoyib vatandoshlar, ajdodlar nomi, ularning ulug‘ ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo‘lish;

– shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

– Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo‘lgan qahramonlar nomini yod etish;





– XX asrning yigirmanchi, o‘ttizinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag‘onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo‘lgan millatimizning minglab farzandlarini unutmaslik;

– shu aziz va go‘zal vatanimizda yuksak e‘tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo‘lish.

Vatanparvarlik haqida so‘zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in‘om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so‘zlamaslikning iloj yo‘q. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu – Yorkdagi qarorgohi oldida 200 ga yaqin mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida mag‘rur hilpirab turishini ko‘rish va his etish naqadar katta baxt. “O‘zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog‘i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona vatan – O‘zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi”.

Xullas, O‘zbekiston muqaddas Vatan, ota – bobolarimiz yotgan yer, o‘zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru – muhabbat uyg‘otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi.

Vatan kabi insonparvarlik ham – o‘zbek xalqining eng ulug‘ fazilatlaridan biridir. Bekorga aytishmaydi “Odami ersang, demagil odami, onikim yo‘q , xalq g‘amidin g‘ami”A.Navoiy.

Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyg‘undir. Zero, Vatanparvarlik uchun intilish, kurashish zaminida insonparvarlik yotadi. Hatto Qur‘oni Karim ham insonlarvarlik g‘oyalari asosiga qurilgan. Muhammad alayhissalom hadislarida esa shu g‘oyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi.

Insonparvarlik kishilarning bir – biriga hurmatida, qadr – qimmatida, mehr – shafqatida, diyonatda, o‘zaro ko‘maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o‘zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir – biriga suyanishi, yaxshi qo‘shnichilik, bolajonlik, ota – onaning bolaga, bolaning ota – onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Darvoqe, o‘zbek xalqi bir umr mehr – shafqatli bo‘lgan, barchaga yordam qo‘lini cho‘zgan. Buni u o‘zining fashizmga qarshi kurash yillarida yetim bolalarning boshini silab, o‘z tarbiyasiga olgani yorqin namoyon etgan.

O‘zbek xalqi o‘z mutafakkirlari misolida doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al – Xorazmiy, al – Beruniy, Ibn Sino, az – Zamahshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy kabi allomalar asarlaridagi yetakchi g‘oyalar insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g‘amxo‘rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustida g‘am yemaslik sharaflı inson uchun tamomila yotdir.





Navoiy barcha – barchani insonga g‘amxo‘r bo‘lishga chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan. Navoiy nafaqat badiiy ijodda, balki o‘z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutafakkirdir. U xalq uchun, el – ulus uchun, beva – bechora, yetim – yesirlar uchun madrasalar, tabobat xonalari, shifo maskanlari qurdirgan. Doshqozonlarda ovqat pishirib tekin tarqatgan. Dardmandlarga bepul tabobat ko‘rigi uyushtirib tibbiy yordam bergan. Bunday insonparvarlik namunasidan hammamiz har qancha o‘rnak olsak arziydi.

Bugun Mustaqil O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilganligi va uni amaldagi namunasi ekanligi bilan har birimiz har qancha faxrlansak arziydi. Ha, respublikamiz hukumati inson huquqlari va demokratiyaga oid masalalarni maxsus qonun bilan belgilab qo‘ygan.

O‘zbekiston davlatining eng ulug‘vor va insonparvarlik g‘oyalaridan biri ichki va tashqi siyosatda tinchlik siyosatidir. Inson tug‘ilgan ekan, u yashashi kerak. Yashash uchun tinchlik zarur. Demak, davlatimizning tinchlik siyosati insonparvarlik siyosati mazmuni bilan yo‘g‘rilgan.

O‘zbekistonning ekologik siyosati ham insonparvarlik mazmuni bilan bog‘langan. Ekologiya buzilar ekan inson salomatligi yomonlashadi. Inson nosog‘lom ekan, bu jamiyatda nosog‘lomlikni keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib davlatimizda “Sog‘lom avlod”, “Sog‘lom bola” kabi davlat dasturining ilgari surilganligi insonparvarlikka qaratilgan katta tashabbuslarga misoldir. Ha, mustaqil O‘zbekiston o‘z xalqining salomatligi haqida qayg‘urar ekan, unga milliy boylik sifatida qaraydi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham o‘zining insonparvarlik g‘oyalari bilan ajralib turadi. “Shu kunda zamin odamlari ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, mardlik, tantilik bag‘rikenglik kabi ulug‘ xislatlar bu hujjatdan munosib o‘rin olgan”. Chunonchi uning Konstitutsiyaning 39 – moddasida “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Pensiylar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan va u tirikchilik uchun zarur eng kam ta‘minot miqdordan oz bo‘lishi mumkii emas”, deyiladi. Shuning uchun ham davlatimizning asosiy qonuni o‘zining insonparvarlik kafolati ustuvorligi tufayli xalq oldida katta obro‘ – e‘tiborga ega. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasi”ning muhim tamoyilidan biri ham ijtimoiy siyosatga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Insonparvarlikning ko‘rinishlaridan biri bu insonni ulug‘lashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot. “Islohotlarimizning muhim tamoyillaridan biri aholining kam ta‘minlangan tabaqasi, ya‘ni qariyalar, nogironlar, bolalarni muhofaza qilish, ularni puxta himoyalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb – hunar egallashi, ish bilan ta‘minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir” degan edi Sh.M.Mirziyoev. Bu haqda Qur‘on va hadislarida, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Shu o‘rinda “Sharq Gegeli” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan faylasuf shoir,





mutafakkir Mirzo Bedil soʻzlarini keltirish naqadar oʻrinli boʻladi. U insonni irqiy, milliy, diniy eʼtiqodlaridan qatʼiy nazar hurmat va ehtiromga sazovor zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: “Dar kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u malʼundir”.

Bugun Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida insonparvarlik tuygʻularini shakllantirish va rivojlantirish, demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun ham vatanparvarlik va insonparvarlik tuygʻularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻz millatiga sadoqatli boʻlish millatparvarlik bilan hamohang tushunchadir. Oʻz millatini sevmagan inson oʻzini ham, Vatanini ham seva olmaydi. Millatparvarlik – bu oʻz millatini boshqa millatlardan ustun qoʻyish yoki kamsitish kabi (millatchilik va shovinizm) jirkanch harakatlardan tubdan farqqiluvchi tuygʻu boʻlib oʻz millatining birligini mustahkamlash, oʻz tili, urf – odatlari, anʼanalarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarini koʻz qorachigʻiday asrash, oʻz millatining kelajagi yoʻlida fidoyi boʻlishdir.

Bunda millatimiz manfaatlarini koʻzlab millatparvarlikning yorqin namunasini koʻrsatgan xalqimizning sodiq farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashviqot qilish gʻoyat katta ahamiyatga ega. Bugun F. Xoʻjaev, A. Ikromov, A. Qodiriy, U. Nosir, A. Fitrat, I. Moʻminov, H. Abdullaev, Sh. Rashidov, I.A. Karimov kabi buyuk shaxslarning, shuningdek yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning nomlari millatparvarlikni oʻzida yorqin mujassam etganligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ularning har biri shoʻrolar tuzumining eng murakkab, eng qiyin sharoitida millatimizning manfaatini, qadr – qimmatini, or – nomusini, tarixini, madaniyatini va maʼrifatini himoya qildilar. Millatimizning ozodligi uchun jon fido etdilar.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning bagʻrikenglik bilan oʻzga yurtlarda qolgan nochor, himoyasiz qolgan ayol va bolalarni oʻz yurtiga kelishi uchun ularni af etib olib kelinishi, bilib-bilmay jinoyat ishlariga kirib qolgan va oʻzlarini toʻgʻri tushunib anglagan insonlarni muddatidan oldin af etilishi qanchadik insonparvarlik bu yurtda ulugʻlanganligiga asos boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, bugun mustaqil Oʻzbekistonning jahonda oʻz munosib oʻrnini topishi, millatimizning qadr – qimmatini joyiga qoʻyish, ona zaminda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari bilan hamjixatlik va ahillikda barqaror rivojlanish yoʻlida faoliyat koʻrsatayotgan insonlar oʻz yurtida vatanparvarlik bilan birga insonparvarlikni uygʻunlashgan xolda yoshlar tarbiyasida eng ulugʻ fazilat, hamda muqaddas burchi deb hisolashadi va faoliyat namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. “Xalq soʻzi” 2020 yil 24-sentabr
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. –T.:Oʻzbekiston, 2021. -278 b.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida 2018 yil 27 iyundagi Farmoni. // Xalq so‘zi 2018 yil 28 iyun .

4. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma‘naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / “Xalq so‘zi” 2017 yil 1 iyul.

5. Каримов И.А.Юксак маънавият–енгилмас куч. –Т., Маънавият, 2008, -176 б

8. Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ.– Т.:Ўқитувчи, 1992.-160 б.

9. Аминов Б., Расулов Т.Ватан-юракдаги жавоҳир. - Т.:Ўқитувчи, 2001.– 232 б.

10. Амир Темур ўғитлари. – Т.: “Наврўз”, 1992. - 45 б

11. Атаджанова Ш.А Оилада ўспирин ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари. Пед фан.номз. дисс. автореф. – Т., 2001. – 19 б.

12. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – Т.: O‘zbekiston, 1996. – 397 б.

13. Safoev H. Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – dolzarb pedagogik muammo sifatida // Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021 y. 3-son. 276 - bet.

14. Xudoyqulov X.J., Xolov O.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - 132 Termiz., 2020. - 225 б.

15. Xudoyqulov X.J.,Boboqulova D.M. Pedagogika. Darslik.-Т.:Innovatsiya-Ziyo. 2021 у.

16. Қалқонов Э.Т Ватанпарварлик шаклланиши ва амал қилишининг боғлиқлик қонуниятлари (ижтимоий фалсафий таҳлил) Фалсафа фанлари номзоди ил. дараж. олиш учун ёзилган дисс. - Т., 2011.

17. Қурбанов Р.Ю. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни. Фалсафа ф.н.олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2008.

